

TA'LIMNI JARAYONINI INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH

Axmedova Dilnoza

Xorazm viloyati Urganch shahar 16 – maktab o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqola boshlang'ich ta'limni innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish, buning uchun boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiya berayotgan o'qituvchi-pedagoglarning zamonaviy bilim va ko'nikmaga ega bo'lishlari davr talabi ekanligi haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, ta'lim, moderniyatsiya, fundamental.

Buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak deb keltirib o'tganidek, biz oldimizdagi maqsadlarga erishish uchun yangi rejalarni belgilab olishimiz talab etiladi. Ma'lumki, uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bog'in hisoblangan umumta'lim maktablarning aynan asosiy qismi hisoblangan boshlang'ich ta'lim tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish va bu tizimda o'qitiladigan fanlar bo'yicha yaratilgan darsliklarni, zamon talablari darajasida sifatli ko'rinishda tayyorlash asosiy vazifamidir. Bu borada mamlakatimizda bir qancha maqsadli ishlar amalga oshirilmoqda. Bola yetti yoshidan maktabda tahsil olish uchun qabul qilinadi va shu yoshda dunyoviy bilimlarni egallab boshlashga jismonan tayyor bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lib kelgan bolalar maktabga kelganda bu ko'nikmalar yanada chuqurlashtirilib nazariy bilimlar bilan boyitilib, kongnitivlik tushunchalari paydo bo'ladi. Bunda maktabgacha va boshlang'ich ta'lim tizimi o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni uzviy yo'lga qo'yish masalalariga ham teran yondashuvlar talab qilinadi. Boshlang'ich ta'lim rivojlangan mamlakatlarning ta'lim tizimida o'ziga xos o'ringa ega. Ko'pgina davlatlarning ta'lim tizimini o'rganish davomida boshlang'ich ta'limga alohida o'ringa ega ekanligi va o'qitish jarayonida o'quvchilarning bilimlarni egallash doirasi kengroq ekanligi aniqlangan. Masalan, bugun Finlandiya tajribasini ta'lim tizimizga



joriy etish bo‘yicha juda ko‘plab amaliy ishlar qilinmoqda. Finlandiyada ta‘lim sifatini oshishida o‘qituvchilarning salohiyati muhim hisoblanadi, ya‘ni boshlang‘ich sinflarda ta‘lim beradigan har bir o‘qituvchi magistraturani tugatgan bo‘lishi, komputer savodxonligidan to‘liq xabardor bo‘lishi kerak bo‘ladi.

Bundan tashqari, boshlang‘ich sinflarda o‘tiladigan asosiy predmentlar bular ona tili, o‘qish va matematika darslaridir. Biz bu darslarning yanada samaradorligini oshirish, fanlarni o‘qitishning ilg‘or texnologiyalarni yanada takomillashtirish maqsadida jahon tajribasida sinalayotgan usullardan tolaqonli foydalanishga erishishimiz zarur. Bulardan biri integratsion ta‘limdir. “Integratsiya – differentsiya jarayonlaridagi fanlarning o‘zaro yaqinlashuvi va bog‘liqligida ko‘rinadi. Integratsiya jarayoni fanlararo bog‘liklikning yuqori shaklida namayon bo‘ladi” eng soddasi ma‘lum bir joy yoki tushuncha bilan chegaralangan lokal tasavvurdir. Bu bog‘liklik boshqa bilimlarga nisbatan ajralgan, shuning uchun eng oddiy aqliy faoliyatni ta‘minlaydi.

Har bir fanda o‘tilayotgan dars mavzusi o‘zining ta‘limiy maqsadidan sheklanmagan holda ingliz tili bilan solishtirish va lug‘at mashqlari o‘quvchining tilni o‘rganishdagi qiyinchiliklarini yengishiga yordam berib, ingliz tili bo‘yicha sovdohonligini oshiradi. Dars davomida fanni ingliz tili bilan bog‘lashda mashq 3-5 daqiqadan ortmasligi va o‘quvchilarning o‘zlashtirish doirasiga ham ta‘sir qilmasligi kerak. Shuning uchun asosan nimalarga e‘tibor berish kerak; bular: so‘zlarning A1 darajadali, atamalarning o‘qilishi va yozilishining qisqa, tushunarli bo‘lishi va kerakli hajmdan oshmasligi. Buning uchun albatta, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘zlari ingliz tilidan kerakli bilimlarga ega bo‘lishi va kerakli ma‘lumotlarni izlab topish uchun o‘z ustida tinimsiz izlanishi lozim. Bu ikkinchi hihatdan o‘qituvchining ingliz tili bo‘yicha lug‘at boyligini oshirib borish uchun ham xizmat qiladi. Ta‘limni modernizatsiyalashda mavjud imkoniyatlarni hisobga olgan holda fanlarning o‘zaro ingliz tili bilan bog‘liklik jihatlarini o‘rganib chiqish, solishtirish asnosida natijalar hosil qilish talab qilinadi.

Demak, boshlang‘ich ta‘limni innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish juda muhim hisoblanib, sifat va samadorlikka e‘tibor qaratish bilan kafolatlanadi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Azbarov Yu.T. Bolalarni sevish san’ati. T.:O‘qituvchi.1991. – 138b.
2. Azizxo‘jayeva N.N. O‘qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. –T.: TDPU. 2000. – B.52.
3. Jumaev M., Yuldasheva M., Mingbaeva B., Mamatova G., Levkina M.F. Boshlang‘ich ta’lim fanlarini o‘qitish metodikasi O‘UM. 2017. – B. 21.
4. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi. –T.: TDPU, 2013. – 70 b.

